

**2018 -2019 yillar I -yarim yillik yakunlariga ko'ra Avtomobil yo'llari qo'mitasining asosiy faoliyat ko'rsatkichlari to'g'risida taxliliy MA'LUMOT**


T/r	Asosiy faoliyat turi bo'yicha ko'rsatgichlar	O'Ichov birligi	2018 y I-yarim yillik amalda	2019 y I-yarim yillik amalda	2018 yilning I-yarim yillikka nisbatan(%)
	Bajarilgan ish xajmi, jami	mlrd.so'm	1102,4	1883,3	170,8
	shu jumladan:				
1	Investitsiya dasturi bo'yicha	mlrd.so'm	218,7*	600,9*	274,8
		km	97,7	98,6	100,9
2	To'la ta'mirlash ishlari	mlrd.so'm	82,7	199,5	241,2
		km	21,5	85,5	397,7
3	Mintaqaviy yo'llarni ta'mirlash	mlrd.so'm	124,91	326,8	261,6
		km	1342,7	2277,0	169,6
4	Umumiyl foyda lanuvdag'i avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash ishlari	mlrd.so'm	676,1	656,1	111,8
		km	1275	1144	89,7
5	Yangi ishjoylarini yaratish	kishi	232	280	120,7
6	Qora metall chiqindilarini topshirish	tonna	8792	8801	100,1

Qo'mita tizimidagi korxona va tashkilotlarda 2019 yilning I –yarim

yilligi davomida Investitsiya dasturiga asosan umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **600,9 mlrd. so'mlik** qurishva rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Ushbu ko'rsatkich 2018 yilning xuddishu davriga nisbatan **274,8 foizni** tashkil etadi.

Bundan tashqari to'la ta'mirlash dasturiga asosan umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **199,5 mlrd.so'mlik** ta'mir ishlari bajarildi. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilining **I –yarim yillikka** nisbatan **241,2 foizga** oshgan.


### **2018-2019 yillarning I-yarim yillik yakunlariga ko'ra asosiy faoliyat ko'rsatgichlarining taqoslama diagrammasi**



2019 yilning I –yarimyillik yakunlari bo'yicha Respublikamizdagи **2277 km** mintaqaviy avtomobil yo'llarini ta'mirlandi. Shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida **141,1 km**, Andijonda **315,7km**, Buxoroda **129,0 km**, Jizzaxda **89,1 km**, Qashqadaryoda **173,1 km**, Navoiyda **227,6 km**, Namanganda **238,2 km**, Samarqandda **238,2 km**, Surxandaryoda **147,0 km**, Sirdaryoda **121,8 km**, Toshkent viloyatida **119,3**

**km**, Farg'onada **296,8 km**, Xorazmda **129,8 km** hamda Toshkent shahrida **32,1 km** mintaqaviy avtomobil yo'llarida ta'mirlash ishlari olib borildi. Mintaqaviy ichki yo'llar ta'miri hajmi esa o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan **169,5 foizni** tashkil etadi.

### 2019 yil I-chorak yakuniga ko'ra mintaqaviy avtomobil yo'llarini ta'mirlash (xududlar kesimidagi diagramma)



2019yil I-yarim yillik davomida Respublika bo'yicha avtomobil yo'llarida **42695 km** uzunlikdagi yo'llardan **756,1 kmdan iborat qismida** joriy ta'mirlash ishlari amalgा oshirilib, ularning holati yaxshilandi. Bu esa 2018 yilining I –yarim yillikka qaraganda **111,8 foizni** tashkil etadi.

Tizim korxonlari tomonidan 2019 yil I –yarimyillikda **280 ta** yangi ish o'rirlari yaratildi. Bu ko'rsatkich esa 2018 yilining mos ravishdagi tegishli davriga qaraganda **120,0 foizni** tashkil etadi.

Korxonalar tomonidan qora metall chiqindilari topshirish ko'rsatkichi 2019 yil I –yarim yillikda **8801 tonnani** tashkil etadi. Bu – qariyb o'tgan yilgi darajada qolib, kamayishga yo'l qo'yilmagan.

Xulosa qilib aytganda, Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2019 yil I-yarim yillikda –umumiyl bajarilgan ishlar xajmi – **1883,3 mlrd. so'mlik**dan iborat. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning I-yarim yillikka nisbatan **170,8 foizni** tashkil etganligini ko'rsatadi.